



SURXON VOHASI AYOLLARINING MILLIY LIBOSLARIDAGI AN'ANAVIYLIK

JUMAQULOVA Farangis Alisher qizi,

Termiz iqtisodiyot servis universiteti

Tarix ta'lif yo'naliishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Surxon vohasi aholisining ayollar kiyimlaridagi XIX asr oxiri va XX asrlardagi o'zgarishlar yoritilgan. XX asr boshlarida hududga fabrika gazlamalarining keng tarqalishi va tikuv mashinalarining kirib kelishi tufayli ayollar milliy liboslarida rang-barang usullar, bichimlar, naqshiy bezaklar hamda yangi "bichiqli" kiyimlar paydo bo'lishi kabi masalalar tarixiy hamda etnografik materiallar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ayollar ko'ylagi, to'y va marosim liboslari, bosh kiyimlar.

ТРАДИЦИЯ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ОДЕЖДЕ ЖЕНЩИН СУРХАНСКОГО ОАЗИСА

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются изменения женской одежды в конце 19 - начале 20 веков на Сурханского оазиса. В начале XX века, в связи с распространением фабричных тканей и появлением в регионе швейных машин, были проанализированы такие вопросы, как появление на женских национальных костюмах пестрых узоров, рисунков, рисунков и новых «вышиванок» на женских национальных костюмах. историко-этнографических материалов.

Ключевые слова: женская платья, свадебные и парадные платья, головные уборы.

TRADITIONAL IN NATIONAL CLOTHES OF WOMEN OF SURKHAN OASIS

ABSTRACT

This article covers the changes in women's clothing in Surkhan oasis in the late 19th and early 20th centuries. In the early twentieth century, due to the spread of factory fabrics and the advent of sewing machines in the region, issues such as the emergence of colorful patterns, patterns, patterns and new "embroidered" clothes on women's national costumes were analyzed on the basis of historical and ethnographic materials.

Keywords: women's dresses, wedding and ceremonial dresses, headwear.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, har bir xalqning etnik tarkibini o'rganishda va uni ilmiy jihatdan asoslashda kiyimlarning asrlar mobaynida o'z milliyligini saqlab qolganligi o'ziga xos o'ringa ega hisoblanadi [1]. Davrlar o'tishi bilan transformasion jarayonlar ta'siri ostida zamonaviy kiyimlar o'zgarib turadi, lekin an'anaviy kiyimlar o'sha elat, millat kiyimlarining o'zagi sifatida doimo mavjud bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Surxon vohasi aholisi ayollarining kiyimlari kiyiladigan mavsumiga qarab qishki-bahorgi, yozgi-kuzgi kiyimlarga, bajaradigan vazifasiga ko'ra: kundalik uy-ish kiyimlariga; to'y-bayram sarpolariga bo'lingan. Bundan tashqari ayollar kiyimi yoshiga qarab ham farqlanadi. Ayollarning an'anaviy kiyimlari orasida bosh kiyimlari alohida o'rinnegi egallaydi. Mintaqada ayollarning bosh kiyimlarining bir necha xil turlari mavjud bo'lib, ular kiyim egasining yoshiga, etnik mansubligiga, ijtimoiy mavqeiga hamda yil fasliga qarab kiyilgan. Shuningdek, bosh kiyimlarda kiyim egasining oiladagi mavqeい aniq ifodalangan. Bosh kiyim va soch turmagiga qarab, qiz bolaning turmushga chiqqan kelindan, yosh onani farzandsiz xotindan, o'rta yoshli ayolni keksa kayvoni momolardan ajratish mumkin bo'lgan [2].

Ayollarning an'anaviy kiyimlaridan keng tarqalgan ommaviy kundalik kiyimlardan biri ko'ylak o'rganilayotgan davrda ayollar ko'ylagi choksiz to'g'ri bichimli bo'lib, uzun keng qilib tikilgan. Ayollar ko'ylagini bichimda tejamkorlikka e'tibor berilgan. Bir butun mato ko'ylakning old va orqa tomonini tashkil qiladigan holatda yelkalari tikilmay taxlangan [3].

Matoning gavda qismida perpendikulyar qilib to'g'ri yoki torayib boruvchi yenglar tikilgan. Qo'ltilq ostiga har doim uchburchak yoki romb shaklida yamoq-qulfak solinib, ko'ylakning yon tomonlariga uzun uch burchak shakldagi qiyiq-kulfak tushirilgan. Ayollar kiyimlarining ushbu ko'rinishda bichilishi libosning bu turiga xos umumiylar belgilardan biri bo'lib, bichuvchining asosiy maqsadi matoni tejashga qaratilgan. Hozirda ham keksa ayol bichuvchilar matoni tejash chun shu usuldan foydalanishadi. Shuningdek mintaqqa ayollarining ustki kiyimlaridagi o'ziga xoslik ularning yoqalarida ham o'z ifodasini topgan.

O'rta Osiyoning barcha xalqlarida udum bo'lganidek o'rganilayotgan hudud ayollarining ko'ylaklarida ham yoqaning asosan ikki ko'rinishdagi shakli mavjud bo'lgan: 1. Uzun-tik o'yma yoqa (vertikal yoqalar). 2. Yelka yoqa- kiftlari bir yoqadan, ikkinchisiga tutashuvchi yoqalar (gorizontal yoqalar).

Mahalliy sharoitda ko'ylakning ko'ndalang yoki uzun tik qirqilgan bosh kirib chiqishi uchun mo'ljallangan qismi "yirmochi" yoki "yoqa" deb atalgan. Surxon vohasi qishloqlarida tik yoqali ko'ylaklar "pushkusho", "jahak" deyilsa

Qashqadaryoda bu ko‘ylaklarni bolali onalar keyishgani bois “onalik ko‘ylagi” yoki “ayol ko‘ylak” deb atashgan.

Ko‘ylaklarning yirmochi ko‘ndalang yoqa turlari, asosan qizlar tomonidan turmushga chiqqanlariga qadar kiyilgan. Qizlar turmushga chiqqanlarida nikoh kunlari yoki to‘ydan so‘ng uchinchi kuni qizlik ko‘ylaklarini xotinlik ko‘ylaklariga almashtirishgan. Xotinlik ko‘ylagi old yoqali, lekin yoqa uncha uzun ochilmagan, uchburchak shaklda bo‘lgan.

Bolalik ayollar kiyadigan ko‘ylaklar yoqasi kelinlikda kiyilgan ko‘ylaklar yoqalariga nisbatan uzunroq va kengroq tikilgan. Bu esa bola emizishni osonlashtirgan [4]. Bunday ko‘ylaklar yuqorida eslatib o‘tganimizdek, xalq orasida “ona ko‘ylak” yoki “ayol ko‘ylak” deb atalgan.

Ko‘ylaklar yirmochining chekkalariga turli xil jiyak, chiroz, tama turli xil rangli ipak iplardan yo‘rma usulida kashta tikib chiqilgan. Yoqaga kashta, jiyak tikishda ikki narsaga e’tibor berilgan. Birinchidan kashta, jiyak ko‘ylakka ko‘rk bergen bo‘lsa, ikkinchidan ko‘ylak yoqasini yirtilmasligini, uzoq muddat xizmat qilishni ta’minlagan.

Boysun, Sherobod tumanlarining tog‘, tog‘oldi tojik va chig‘atoylar yashagan qishloqlari ayollarini va qizlari ko‘ylaklarning old qismilariga o‘ta did va mahorat bilan bezak va kashtalar tikkan. Ko‘ylaklarga beriladigan bezak turi va shakli bir tomonidan o‘sha hududdagi mavjud shart-sharoitga, ikkinchidan kiyimning qaysi maqsadlarda kiyilishiga bog‘liq bo‘lgan.

Mintaqada yashovchi turli tuman etnoslarning kiyimlarida ham etnik o‘ziga xoslik ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, bu borada Qashqadaryo vohasi arablarining kiyimlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, arab ayollarining kiyim-kechaklarida o‘ziga xoslik borki, bu Markaziy Osiyo arablari qavmining etnik tarixiga oid ko‘pdan ko‘p masalalarga oydinlik kiritadi. Keksa ayollar oq yoki ko‘k fondagi ko‘ylak kiyganlar, ko‘ylakning uzunligi to‘piqqacha yetib, yengi va yoqasi qora kasta bilan bezatilgan. Arab qizlari yaqin kunlargacha “mo‘ndi yoqa” ko‘ylak kiyishgan. Turmushga chiqqan ayollarning tik yoqali ko‘ylagi o‘z bichimiga ko‘ra keng, uzun hamda, uzun yengli bo‘lib, an’ana bo‘yicha qizlarning kiyimlari o‘rtalosh va keksa ayollarning kiyimlariga qaraganda uzunroq qilib tikilgan. Arab qizlari turmushga chiqqanidan so‘ng qizlik ko‘ylaklarini qisqa qirqimga ega bo‘lgan vertikal yoqali kelinlik ko‘ylagiga almashtirganlar. Bunday rusumdagagi ko‘ylakni kelinining ota-onasi avvaldan tayyorlab qo‘yishi lozim bo‘lgan. Kelin bunday ko‘ylakni toki oilada birinchi farzand dunyoga kelguncha kiygan, farzand tug‘ilishi bilan ayol ilk bor ayollar ko‘ylagi “subinmoroni” kiygan [5].

XX asr boshlarida ayollarning ommaviy mehnatga jalb qilinganligi va ish qilish uchun qulayroq kiyimlarga o'tishdagi umumiyligi intilishlari sababli o'rganilayotgan hududda katta yengli va yenglari qaytarilgan, yoqalari bezatilgan ko'ylaklar kiyilgan. Oilaning ichida esa ayollar erkin turadigan, belbog'siz ko'ylaklar kiyishgan. Qashqadaryoning, Shahrisabz, Kitob, Dehqonobod, Surxondaryoning Boysun, Sherobod, Sariosiyo tumanlarida o'zbeklar, tojiklar aralash yashaydigan tumanlarida tojik, qo'ng'iroq, chig'atoq, barlos ayollari keng uzun ko'ylaklarini kiyganda kundalik yumushlariga xalal bermasligi uchun bellarini bog'lab olganlar [6, B.66].

XX asr boshlarida erkaklar va ayollar ishtoni o'zining bichimiga ko'ra bir xil ko'rinishga ega bo'lgan, keyinroq XX asr 30 yillardan boshlab ular o'rtasida farqlanish bo'lgan. Ayollar, lozimi asli keng bo'lib, pastga tomon torayib borgan xotin-qizlar ishtonidagi farqli jihatlardan yana biri ularning pastki qismi chirozli naqsh yoki kashtali jiyaklar bilan bezatilishidir.

O'rganilayotgan hududda keng tarqalgan odatga ko'ra, ayollar ishtoni ko'ylak ostidan ko'rinnmaydigan qismi arzonroq, oddiy matodan, ko'ylak ostidan chiqib turgan, ya'ni ko'rinnadigan qismi qimmatbaho matodan tikilishi ham erkaklar ishtonidan farqli jihatlaridan biri bo'lgan. Mazkur an'ana ilmiy adabiyotlarning guvohlik berishicha mintaqaga xos lokal belgi bo'lmay, balki umummintaqaviy ahamiyat kasb etgan.

Surxondaryoning tog'li qishloqlarida chorvachilik bilan shug'ullanuvchi hudud ayollari qish faslida echki juni (tivit)dan to'qilgan "tivit" ishton kiyishgan. Qishda kiyiladigan issiq, qalin lozimalar boshqa xalqlarda ham uchraydi [3].

Ayollar lozimalarining matolari kiyim egasining yoshiga qarab tanlangan. Lozimalar odatda tovonga qadar tushib turgan, chunki islom dinida shariatga ko'ra nomahram kishilarning ayollar tana qismini ko'rishlari gunoh hisoblangan. Lozmaning yuqorisi, ya'ni tepa qismi qaytarib tikilgan va ishtonbog' o'tkazilgan. Ishtonbog'lar paxta yoki jun iplardan tayyorlangan.

Odatda yosh qiz-juvonlarga tikiladigan lozimalar uchun ochiq rangli matolardan, katta yoshdagi ayollarga, hamda qariyalarga esa odmiroq matolardan foydalilanilgan. Kundalik kiyiladigan lozimalar ko'proq mahalliy, oddiy matolardan, to'y-tantanalarda kiyiladigan lozimalar esa iloji boricha shoyi, atlas kabi ipakli va yarim ipakli, shuningdek xorijdan keltirilgan qimmatbaho matolardan tikilgan.

Ayollar lozima kiyishda o'ziga xos udum va irim-sirimlarga amal qilishgan. Qizlarning seplariga lozima-ishton solinmagan. Lozimalar alohida tikilgan va saqlangan. Ko'p farzanli ayollar befarzand xotinlarga "bola yo'li ochilsin" – degan yaxshi niyat bilan o'z lozimalarining ishton bog'ini berishgan [7]. Lozimalar

o‘rganilyotgan hudud ayollarining kiyim-boshlarining ajralmas qismi bo‘lib ayollar uni yil mobaynida ko‘cha-ko‘yda, oilada muntazam kiyishgan.

Aholining o‘ziga xos milliy etnik xususiyatlari boshqa liboslariga qaraganda aynan bosh kiyimlarida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Shuningdek, O‘rta Osiyo va unga tutash hududlarda yashovchi xalqlarning bosh kiyimlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, aynan mazkur kiyimda muayyan etnik guruhlarga xos mahalliy (lokal) xususiyatlar bilan bir vaqtida umummintaqaviy jihatlar ham aks etadi [8]. Shu o‘rinda alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, etnograf S.Davlatova boshga o‘raladigan va boshga yopiladigan (tashlab yuriladigan) ayollar bosh kiyimini bitta qilib bergen.

Ayollarning an’anaviy kiyimlari orasida bosh kiyimlari alohida o‘rin egallaydi. O‘rganilayotgan hudud ayolarining kiyimlaridagi o‘ziga xoslikni an’anaviy bosh kiyimlarida ham ko‘rish mumkin. O‘rganilayotgan davrda mintaqada ayollar bosh kiyimlarining bir necha xil turlari mavjud bo‘lib, ular kiyim egasining yoshiga, etnik mansubligiga, ijtimoiy mavqeiga hamda yil fasliga qarab kiyilgan. Shuningdek, bosh kiyimlarda kiyim egasining oiladagi mavqeini aniq ifodalangan. Bosh kiyim va soch turmagiga qarab qiz bolaning turmushga chiqqan kelindan, yosh onani farzandsiz xotindan, o‘rta yoshli ayolni keksa kayvoni momolardan ajratish mumkin bo‘lgan [9].

An’anaviy kiyimlarning uzviy bir qismi hisoblangan, oyoq kiyimlari juda qadim zamonlardan mavjud bo‘lib, kishilar unga ibridoiy davrlardan ehtiyoj sezganlar. Arman elshunosi A.S.Armanganyan bu haqda shunday yozadi: “Ibtidoiy odam ham o‘z tanasini himoya qilishni oyoqlarini muhofaza qilishdan boshlagan” [10].

Ayollarning oyoq kiyimlari asosan mahsi, kalish, nug‘ay kovush, hakkari kovush kabilardan iborat bo‘lgan. Shuningdek hududda qish faslida ayollar tomonidan terilardan maxsus ishlov berib tikilgan etiklar ham kiyilgan [6, B.57].

O‘zbekistonning janubiy hududi ayollarining oyoq kiyimlari turli ko‘rinish va bichimlarda bo‘lgan. Ayollar kiyimlari turli mayda kosibchilik ustaxonalarida tikilgan. Ayollar oyoq kiyimlarini tikuvchi ustalar “zaifonachilar” deb atalgan. Keyinchalik savdogarlar tomonidan Rossiya va boshqa o‘lkalardan hududga turli nusxadagi oyoq kiyimlarning keltirilishi tufayli ularning turi, soni, sifati o‘sdi. Ayniqsa, XIX asrning oxirlaridan hududdagi turli zaifonachilar, bachkanachilar ustaxonlari tomonidan tikilgan ayollarning charm oyoq kiyimlari qatoridan Rossiyada O‘rta Osiyo xalqlari uchun fabrikalarda maxsus tayorlangan rezinkali oyoq kiyimlari, jumladan kalish juda tez va keng tarqala boshladи.

Ayollar o‘rtasida keng urf bo‘lgan “qayroqi mahsilar”-bu mahsilarning nima uchun “qayroqi” deb atalishiga O.A.Suxareva quyidagicha izoh beradi: “Mahalliy aholi bu echki terisidan tikilgan mahsilarning qayroq toshday qattiq bo‘lganligi uchun “qayroqi” deb atashgan”. Qayroqi mahsilar o‘tgan asrning 30- yillarida ham urf

bo‘lgan. Bu oyoq kiyimlardan keksa erkaklar ham foydalanishgan. O‘tgan asr “o‘rtalaridan ayollar uchun tayyorlanadigan qayroqi mahsini charmdan emas, laklangan teridan tayyorlay boshladilar. Bu laklangan teri kosiblar tomonidan “amerikacha teri” deb atalib, mahalliy aholi tomonidan amerikoni deb nomlangan” [11].

Mahsilar doimo kalishlar bilan kiyilgan. Shaharlik ayollar uy ichida ham mahsida yurishgan, chunki ayollarning yalang oyoqlarini ko‘rish begona erkaklarga joiz bo‘lмаган. XIX asr oxirlarida ayollar orasida ham etik kiyish odat tusi kira boshlagan, o‘ziga to‘q boy oilalarda naqshli, uzun, tizzagacha, qo‘nji tashqariga qaytarib qo‘yiladigan etiklar kiyishgan [6, B.57].

Mahsi etiklar kiyishga qurbi yetmagan oddiy qishloq ayollari asosan “popuk kovush” kiyishgan. Yog‘och yoki suyakdan poshna qilingan kovushlar aholi orasida “hakkari kovushlar” deb atalgan. Uch qismi ilmoq ko‘rinishida qayrilib turuvchi kovushlar “no‘g‘ay kovush” lar deb atalgan. O‘rganilayotgan hududda boshqa qo‘shni hududlarda bo‘lganidek ayollar oyoq kiyimlarining ko‘rinishi va bezaklari kosib va charmchilarning mahoratiga bog‘liq bo‘lgan. XIX asr oxiri -XX asr boshlaridan e’tiboran Rossiya fabrikalarida tayyorlangan kalish keng tarqalgan bo‘lib, ular ranglariga qarab “qizil kalish”, “mallal kalish” deb atalgan. Kalishlar dastlab qo‘lda tikilgan, to‘qilgan “jiloblar” (mahalliy shevada paypoq ma’nosida) bilan kiyilgan bo‘lsa, keyinroq fabrikalarda to‘qilgan paypoqlar bilan kiyila boshlagan.

XULOSA

O‘zbek xalqining moddiy madaniyati, jumladan, milliy liboslari, jumladan ayollar kiyimlari taraqqiyoti O‘rta Osiyo xalqlari tarixi, unga qo‘shni mamlakatlar xalqlari tarixi bilan chambarchas bog‘liq. Xalqlarning o‘zaro tinch yo‘l bilan bir-biriga yaqinlashuvi, ularning madaniyatini boyishiga xizmat qilgan. Ular bir-birlari uchun, yaqin qadrli bo‘lgan narsalarini almashgan, bora-bora bu har bir xalqning mahalliy madaniyatiga singib ketgan, o‘ziga xoslik va mustahkam an’ana kasb etgan.

Surxon vohasi hududida yashagan boshqa xalq vakillarining kiyim-kechaklarida ham ularning o‘zlarigagina xos bo‘lgan etnik va lokal xususiyatlarni ko‘rish mumkin bo‘lgan. Bu o‘ziga xoslik har bir qavmni, qavmlar ichida o‘z o‘rni borligini, qavmni-qavmdan ajratuvchi bosh omillardan biri-albatta uning kiyim-boshlari ekanligini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Задыхина К.Н., Сазонова М.В. Мужская одежда узбеков Хорезма конца XIX-начала XX в. // Костюм народов Средней Азии.—М., 1979.—С.151-152.

2. Исмаилов Х. Головные уборы узбечек конца XIX-начала XX века // Общественные науки в Узбекистане. 1977. № 6. –С.50.
3. Турсунов Н. Н., Алламуратов Ш. А. Этническая история горцев южного Узбекистана //Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 6. – С. 312-317.
4. Ismoilov H. An'anaviy o'zbek kiyimlari. -Toshkent: Fan, 1978. –B.28.
5. Davlatova S.T. Qashqadaryo milliy kiyimlari: an'anaviylik va zamonaviylik.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. –B.76.
6. Ibragimova M.Yu. Surxondaryo vohasi aholisining an'anaviy kiyimlari va taqinchoqlari. (XIX asr oxiri XX asr boshlari). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -Toshkent, 2004.–B.66.
7. Сухарева О.А. Костюм народов Средний Азии. Опыт анализа покровов традиционной туникаобразной. «Среднеазиатской одежды в плане их истории и эволюции». (Историко-этнографической очерки) –М.: «Наука», 1979. –С.81.
8. Шаниязов К., Исмаилов Х. Этнографической очерки материальная культура узбеков конец XIX- начало XX века. –Т., 1981 .–С.76-78.
9. Исмаилов. Х. Головные уборы узбечек конца XIX- начала XX века.–Т., ОНУ, 1977. №6. –С.50.
10. Арманганян А.С. Обувь древней Армении. «Ереван», 1978.–С.32.
11. Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма: Самарканд 2-половина XIX- начало XX вв.). - М.: Наука, 1982. - C.68.
12. Tursunov N.N. Surxon vohasi aholisi moddiy madaniyatidagi transformasion jarayonlar. -T.: “Yangi nashr”, 2019.-372 b.
13. Алламуратов Ш., Джураева У. XIX аср охири – XX аср бошларида шарқий Бухоро бекликларида савдо-сотиқ ва ҳунармандчилик муносабатлари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 105-110.
14. Турсунов Н. Н., Алламуратов Ш. А. Развитие торговых отношений и ремесел в бекствах Восточной Бухары //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 3. – С. 348-353.
15. Алламуратов Ш. А. Марказий Осие халқлари маданий-диний алоқаларида Амударе сув йўлининг ўрни //Ўтмишга назар. – 2019. – №. 24. – С. 23.
16. Allamuratova X. CONTAMINATION NAMES IN UZBEK ANTHROPOONYMICS, THEIR FORMATION //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. С6. – С. 69-73.
17. Allamuratova X. LINGUISTIC FEATURES OF CONTOMINATIONAL AND APOTROPEIC NAMES IN THE SYSTEM OF ANTHROPOONYMS OF UZBEKİSTAN //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – С. 141-145.